

References:

1. New opportunities for the development of cotton growing and the textile industry have been identified. 06/28/2022
<https://president.uz/ru/lists/view/5296>
2. A. Marshall. Principles of economic science. In 3 volumes. -M.: Publishing group "Progress", 1993. 594 p.
3. M.E. Porter. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990. 495str.
4. E. Dahmen, Entrepreneurship and development of the Swedish industry. Stockholm-1950.
5. N.V. Smorodinskaya, V.E. Malygin, D.D. Katukov. How to strengthen competitiveness in the face of Global Challenges: Cluster Approach Moscow: Institute of Economics, 2015. 10 pages .
6. E.G. Karpova. The essence and structure of the economic cluster. Scientific and Technical Bulletin of SPbGPU 2, 2011, Economic Sciences. 62 p .
7. E.V. Ivanova. On the factors of efficiency of clustering of the region's economy// Economic sciences. 2012. No. 9. pp. 101-104.
8. Rakhmatov M.A., Zaripov B.Z., Cluster – integration, innovation and economic growth. Monograph. "Zomin Nashr", Tashkent – 2018.
9. Makhmudov N.M., "Modeling of production and economic processes of cotton-processing industries". Monograph. Ed.Fan, T 1994, 184 s
10. Bekmuradov A.Sh., Yang Song Bae. Strategy for the development of the textile industry of Uzbekistan. Cluster approach. – T., 2006. – 247 p.;
11. Kurbanova D.M. Prospects for the formation of innovative clusters in Uzbekistan// "Market, money and credit". – 2011 – No. 1. – p. 43.;
12. Mirzakhililova D.M. Improving the competitiveness of Uzbekistan's industry on the basis of clustering (on the example of the textile industry). Diss. on the job. Candidate of Economic Sciences
13. Zahidov G.E. Efficiency of cluster organization and management in the light industry of Uzbekistan. dissertation for the degree of Candidate of Economic Sciences. 2017
14. Gulyaev R.A., Lugachev A.E., Usmanov H.S. The current state of production, processing, consumption and quality of cotton products in the leading cotton-growing countries of the world. Tashkent: "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, 2017, p.171
15. Data from the European Cluster Observatory source: <http://www.clusterobservatory.eu>
16. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 397 "On measures for the further development of cotton and textile production" on June 22, 2020, https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/pri_hlopkovo-tekstilnyh_klasterah_sozdadut_nauchnye_centry
17. Innovative infrastructure in modern Russia. <https://cyberleninka.ru> > article > innovatsionnaya-infrastr..
18. Cotton-textile Clusters in Uzbekistan: Assessment and Forecast. The World Bank report for the Program to Support Socially, Ecologically and Economically Sustainable Cotton Production in Uzbekistan. May 2 , 2020 <http://documents1.worldbank.org/curated/en/527551601272645417/pdf/Policy-Dialogue-on-Agriculture-Modernization-in-Uzbekistan-Cotton-Textile-Clusters-in-Uzbekistan-Status-and-Outlook.pdf>
19. Data from the Association of Cotton and Textile Clusters of Uzbekistan.

TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna –
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish undagi muammolar va yechimlari keltirib o'tilgan. Ayniqsa, mamlakatimizda to'qimachilik va ti-

kuv-trikotaj sanoati rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari ularning yechimlari hamda rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, innovatsiya, eksport, raqobat, ishlab chiqarish.

РАЗВИТИЯ НАПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Ёдгорова Шахноза Хайридиновна –

Самостоятельный соискатель

Навоийского государственного

горно-технологического университета

Аннотация: В данной статье рассказывается о проблемах и решениях развитии текстильной промышленности в Республике Узбекистан. В частности, представлены анализы развития показателей, а также решений их задачи и основные направления развития текстильной и швейно-трикотажной промышленности в нашей стране.

Ключевые слова: инвестиция, инновация, экспорт, конкуренция, производство.

DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTERPRISES OF THE TEXTILE INDUSTRY

Yodgorova Shakhnoza Khayridinovna –

Independent researcher of Navoi State

University of mining and technology

Annotation: This article describes the problems and solutions for the development of the textile industry in the Republic of Uzbekistan. In particular, the analysis of the development of indicators, as well as solutions to their tasks and the main directions of development of the textile, clothing and knitting industry in our country are presented.

Key words: investment, innovation, export, competition, production.

1. Kirish.

Mamlakatimizda bugungi kunda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bunda ushbu soxani, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan ishlab chiqarilayotgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlarning hajmi va turlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda bugungi kunda yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan to'qimachilik faoliyat olib bormoqda. Mahalliy to'qimachilik korxonalarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida mamlakatimizda paxta tolasini ishlab chiqarish quvvatlari yaratilgan.

Eng avvalo, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish, tarmoqni boshqarishni tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish quvvatlarining taqsimlanishi, kadrlar malakasining yuqori emasligi bilan bog'liq tizimli muammolarning mavjudligi paxta xom ashyosini yetishtirishning past rentabelligiga va uni qayta ishlashga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va

eksport qilishning yetarli darajada emasligiga olib kelmoqda.

2. Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimizda to'qimachilik sohasini yanada rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar izchil ro'yobga chiqarilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5989-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra yuqori sifatli to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va uni jahon bozorlariga ilgari surish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar kompleksini belgilab berilgan.

To'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqot izlanishlar nafaqat mamlakatimizda balki butun dunyo buyicha izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak iqtisodchi olimlarimiz B.O. Tursunov tomonidan O'zbekistonda yengil

sanoatnida moliyaviy xavfsizlini ta'minlashning nazariy –amaliy jihatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan (2020) ammo to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy resurslarini boshqarish va rivojlantirish ko'rsatkichlariga to'xtalib o'tilmagan.

Bekmuradov A.Sh., tomonidan (2006) O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyasi nomli maqolalarida to'qimachilik sanoati korxonalarida klaster usulini qo'llash mexanizmlari keltirilgan bo'lib unda rivojlantirish ko'rsatkichlari va moliyaviy resurslarni boshqarish bo'yicha tahlillar bayon etilmagan.

N.L. Savchenko. (2019) Korxonalarining moliyaviy resurslarini boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borgan bo'lib unda O'zbekistondagi amalyot va to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish va moliyaviy boshqarish sohasiga e'tibor qaratilmagan. Shu bilan bir qatorda G.E.Zaxidov. (2017) O'zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligi mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan hamda. Ziyaeva M.M. jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida respublika iqtisodiyotida to'qimachilik sanoatini rivojlantirish istiqbollari mavzusida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ushbu ilmiy izlanishlarda mazkur sohani rivojlantirish ko'rsatkichlari va moliyaviy resurslarini boshqarishdagi muammo va yechimlarga to'xtalib o'tilmagan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning klassik va zamonaviy asarlarida aks ettirilgan va asoslangan to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirishning kontseptsiyalari va gipotezalari xizmat qildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi

Mamlakatimizda to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat:

- ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining hajmi, sifati hamda iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshirish;

- to'qimachilik sanoatining boshqaruv tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;

- to'qimachilik sanoati sohasida standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish;

- tarmoqqa ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

- to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning klaster modelini amalga oshirish;

- logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda xom ashyo resurslari taqsimotining va tashkil etilayotgan tarmoq korxonalari joylashuvining muvozanatini ta'minlash;

- ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or innovatsiya texnologiyalari, nou-xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish;

- to'qimachilik sanoati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish.

Keltirib o'tilgan yo'nalishlar ko'rsatib turibdiki bugungi kunda mamlakatimizda to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, texnologik jarayolarni modernizatsiya qilish va infratuzilmasini rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish, to'qimachilik sanoatiga xalqaro standartlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Belgilab olingan yo'nalishlar va vazifalardan ko'rinib turibdiki mamlakatimizda maxalliy xom-ashyodan foydalanilgan xolda to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish orqali YaIMning o'sish suratlari erishish, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash va bu orqali import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishga erishish mumkin. Shunday ekan, quyidagi keltirilgan 1-jadval ma'lumotlarda 2017-2021 yillar davomida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlantirish ko'rsatkichlar ko'rishimiz mumkin. Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki mamlakatimizda 2017 yilda yetishtirilgan paxta tolasining 40% kayta ishlangan bo'lsa 2021 yilda 100% kayta ishlashga erishilgan. Bu esa bugungi kunda Respublikamizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

2017-2022 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlantirish ko'rsatkichlar¹

№	Ko'rsatkichlar nomi	o'lchov birligi	2017 y.		2018 y.		2019 y.		2020 y.		2021 y.			
			natura	miqdor	natura	miqdor	natura	miqdor	natura	miqdor	natura	miqdor	quvvatdan foyd. darajasi	
1	Paxta tolasi	ming tn.	468,2	532,4	801,3	852,0	1 003,0							
	qayta ishlash darajasi	%	40%	63%	88%	93%	100%							
2	Sanoat mahsulotlari	mlrd. so'm	22 871,5	32 567,4	39 112,5	44 154,2	64 791,1							
	yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi	%	27,4%	34,5%	42,8%	44,0%	53,7%							
2.1	Kalava ip	ming tn.	412,3	8 946,9	535,0	11 609,5	14 955,0	16 887,2	1 030,0	862,3	19 447,8	83,7%		
	qayta ishlash darajasi	%	49,6%	47,2%	40,0%	41,5%	40,6%							
2.2	Gazlama	mln. kv. m	370,5	1 667,3	492,8	1 973,5	645,0	2 583,0	705,1	2 782,4	950,0	716,2	3 522,8	75,4%
2.3	Trikotaj mato	ming tn.	71,9	2 525,4	122,6	4 306,2	137,3	4 822,5	160,5	5 061,1	2 60,0	203,8	7 012,4	78,4%
2.4	Tikuv-trikotaj mahsulotlar	mln. dona	452,2	5 976,9	812,4	10 741,4	1 214,3	16 055,3	1 520,0	18 689,0	2 500,0	1 997,8	32 720,9	79,9%
2.5	Paypoq mahsulotlari	mln. juft	98,4	295,6	162,9	489,4	231,9	696,7	400,2	734,5	580,0	458,4	2 087,1	79,0%
2.6	Boshqa mahsulotlar	mlrd. so'm	3 459,4	3 447,4										

¹ Davlat statistika qo'mitasining 2017-2021 yillardagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlanish ko'rsatkichlari undagi paxta tolasini qayta ishlash darajasiga, kalava ip va gazlamalarning qayta ishlash darajasiga bog'liq. Shunday ekan, mamlakatimizda 2017 yilda paxta tolasini qayta ishlash darajasi 40 foizni tashkil etgan. Davlatimiz rahbarining to'qimachilik sanoatini rivojlantirish borasida olib borgan islohotlari natijasida esa yillar mobaynida ushbu ko'rsatkich oshib borganligini ko'rish mumkin. Masalan, 2018 yilda 63 %, 2019 yilda 88 %, 2020 yilda 93%, 2021 yilda 100 %ga ya'ni, 5 yil davomida 60 foizga oshirilishiga erishilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarishni kengaytirish va xom ashyoning o'rniga mahalliy xom ashyodan foydalanilgan holda raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga realizatsiya qilish amalga oshirilmoqda. Bu esa qo'shilgan qiymatli mahsulotlarning ulushining oshishiga olib kelgan. qo'shilgan qiymatli mahsulotlarning ulushi 2017 yilda 27,4 foizni tashkil etgan bo'lsa 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 53,7 foizni tashkil etgan, ya'ni 26,3 foizga oshirilishiga erishilgan. Kalava ipni qayta ishlash darajasi esa 2017 yilda 49,6 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 40,6 foizni tashkil etgan ya'ni, 9,0 foizga kamaygan bo'lib, mamlakatimizda mahsulot ishlab chiqarish turlari kengaytirilgan. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari

esa, bugungi kunda 75% dan oshiq quvvat bilan ishlab kelmoqda va aholining to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirib kelmoqdalar.


To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarining eksport qilish ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2017 yilda eksport xajmi 1169,0 mln.dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda esa, 2931,2 mln. dollarni tashkil etgan ya'ni 2,5 baravarga o'sishiga erishilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichlari taxlil qiladigan bulsan 2018 yilda 11,4 %ga, 2019 yilda 26,9 %ga, 2020 yilga 21,2 %ga va 2121 ilda 56,9 foizga eksport xajmi oshgan. Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki mamlakatimizda 2017-2021 yillar davomida kalava ip, gazlama, trikotaj mato, tikuv-trikotaj mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni eksport qilish barqaror suratlarga o'sishini kuzatish mumkin. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarining eksport qilish xajmi 2017 yilga nisbatan 2021 yilda 2,5 barobarga o'sgan buning natijasida mamlakatimizda aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilganligi, aholi bandligini ta'minlash borasida qilingan say xarakterlar va sanoat ya'ni to'qimachilik sanoati mahsulotlarini oshirilishi zahirida ushbu sohada beriladigan e'tibor va tadbirkorlik sub'ektlariga yaratilgan shart-shart sharoitlar va ularni faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirib borilayotganligini yaqqol isbotini ko'rish mumkin.

2-jadval

2017–2022 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarining eksport qilish ko'rsatkichlari²


№	Ko'rsatkichlar nomi	o'lchov birligi	2017 й.		2018 й.		2019 й.		2020 й.		2021 й.		2017 yilga nisbatan o'sish, barobar
			natura	miqdor	natura	miqdor	natura	miqdor	natura	miqdor	natura	miqdor	
	Eksport	mln. doll.	1 169,0	1 302,3	1 541,3	1 868,4	2 931,2	2,5					
1	Kalava ip	ming tn.	207,7	529,1	282,3	725,0	381,1	880,9	455,4	947,3	562,6	1 618,7	
2	Gazlama	mln. kv. m	86,8	39,5	184,5	75,4	215,5	73,8	296,5	103,9	318,5	145,6	
3	Trikotaj mato	ming tn.	10,8	43,1	16,2	63,0	20,4	79,3	33,2	139,5	46,1	238,3	
4	Tikuv-trikotaj mahsulotlar	mln. doll.		228,8		313,1		486,3		648,0		882,3	
5	Paypoq mahsulotlari	mln. doll.		0,9		14,1	74,6	21,2	119,8	29,8	167,3	46,3	
6	Boshqa mahsulotlar	mln. doll.		327,5		111,7							
7	Mahalliyashtirish	mlrd. so'm		22,9		30,2		169,8		1130		566,8	

² Davlat statistika qo'mitasining 2017-2021 yillardagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



1-rasm. 2017-2022 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatidagi ish o'rinlari¹

Keltirilgan 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki mamlakatimizda 2017 yilda jami to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati sohasida jami banb bo'lgan aholi soni 2017 yilda 148750 nafar bo'lgan bo'lsa 2021 yilda ularning soni 405970taga yetgan bu esa 2,7 barobarga o'sgan. Yaratilgan ish o'rinlari esa 2017 yilda 5140 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 22070taga yetgan. Yaratilgan jami ish o'rinlari 27210 nafar qo'shimcha ish joylari yaratilgan.



Investitsiya loyihalari soni

2-rasm. 2017-2022 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatidaga kiritilgan investitsiyalar soni²

2-rasm ma'lumotlarida esa 2017-2021 yillar davomida mamlakatimizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida kiritilgan investitsiyalar sonini ko'rish mumkin. 2017 yilda 33 ta investitsiya loyihalari kiritilgan bo'lsa, 2021 yilda ushbu loyixalar soni 85tani tashkil etgan.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlil ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki bugungi kunda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilgan ammo, ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida xorijiy tajribalarni o'rgangan holda mahalliy xom ashyolardan foydalanib ushbu sohanida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning samarali shakllaridan biri klasterlarni tashkil etish hisoblanadi. Mazkur model paxta xom ashyosini yetishtirish, dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan yagona ishlab chiqarish siklini tashkil etishni ko'zda tutadi. Shunday ekan, mamlakatimizda ushbu sohada klaster modeli yanada takomillashtirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

- to'qimachilik sanoati korxalarining boshqaruv tizimini takomillashtirish ayniqsa, ishlab chiqarish, narxlarni shakllantirish va paxtani sotish jarayoniga bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish;

- paxta eksporti hajmini qisqartirish va ichki bozorda qayta ishlashning o'sish sur'atlarini ta'minlash;

- to'qimachilik sanoati korxalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish;

- to'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali mamlakatimizda ushbu to'qimachilik sanoatini yanada rivojlanishi ta'minlanadi. Bundan tashqari yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar amalga oshirilsa ushbu sohaning barqaror o'sish suratlariga erishish mumkin.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiining 2020 yil 5 maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5989-sonli Farmoni.

¹ Davlat statistika qo'mitasining 2017-2021 yillardagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

² Davlat statistika qo'mitasining 2017-2021 yillardagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

2.Bekmuradov A.Sh., Yang Son Be. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т., 2006. – 247 с.;

3.Abduraxmonov Q.X. Labor Migration of The Population and Evaluation of Supply Chain on the Labor Market. International Journal of Supply Chain Management. IJSCM, United Kingdom. (<http://excelingtech.co.uk>), Vol.8. April 2019. – Pp.896-907;

4.Nabiyev E.G. Menejment marketing. O'quv qo'llanma. – Т., 2017. – 519 b;

5.B.O.Tursunov. "O'zbekistonda yengil sanoatnida moliyaviy xavfsizlini ta'minlashning nazariy-amaliy jihatlari. 2020 yil 5-sonli Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali.

6.Н.Л.Савченко. Управления финансовыми ресурсами предприятия. Учебное пособие. 2019 Екатеринбург Издательство Уральского университета

7. G.E.Zaxidov. (2017) O'zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligi mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati.

8.Ziyaeva M.M. Jaxon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida Respublika iqtisodiyotida to'qimachilik sanoatini rivojlantirish istiqbollari mavzusida ilmiy izlanishlar olib borganlar.-T. "Iqtisodiyot va ta'lim" 1-son 2022 yil.

ТИКУВ-ТРИКОТАЖ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ, ЭКСПОРТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ

Вафоева Дилафруз –
ТДИУ 2-курс таянч докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноати корхоналарини модернизациялаш, экспорт имкониятлари ўрганилган ва таҳлил қилинган.Хориж тажрибаларидан мисоллар келтирилган ва улар асосида хулоса ва таклифлар берилган.

Таянч иборалар: экспорт, модернизация, самарадорлик, бозор, талаб, таклиф, ишлаб чиқариш.

Кириш

Мамлакатимизда қулай инвестиция муҳити яратилиши, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришга алоҳида эътибор қаратилиши натижасида тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноати иқтисодиётининг етакчи тармоқларидан бирига айланиб бормоқда. Технологик қайта жиҳозлаш борасида амалга оширилаётган ишлар эса ҳудудларда ишлаб чиқариш ҳажми ва сифатини юксалтиришга хизмат қилмоқда. Технологиялари маънавий эскирган корхоналарда амалга оширилган модернизация ишлари соҳада жаҳон бозори талабларига жавоб берадиган сифатли тола, мато ва тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш имконини беради. Бунинг самарасида ана шу турдаги рақобатбардош маҳсулотлар экспорти ҳажмини оширади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21 январь 2022 йилдаги «Тўқимачилик

ва тикув-трикотаж корхоналарида чуқур қайта ишлаш ва юқори қўшилган қийматли тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ҳамда уларнинг экспортини рағбатлантириш чоратадбирлари» тўғрисидаги [1] ПФ53-сон фармони соҳада олиб борилаётган ишларнинг янада ривожланишига замин яратади.

Сўнги йилларда тўқимачилик ва тикув-трикотаж корхоналари фаолиятини ўрганиш, уларнинг фаолиятини ривожлантириш ва бунинг учун қулай инвестицион муҳитнинг яратилиши натижасида кенг имкониятлар эшигини очди. Бунинг самарасида, янги турдаги маҳсулотларни ишлаб чиқаришда тўқимачилик саноати корхоналари эътиборни айнан тайер маҳсулот ишлаб чиқариш ва унинг экспортдаги улушини оширишга қаратди.

Бундан ташқари, тўқимачилик корхоналари республика ҳудудидан ташқарида қўшни давлатлар тўқимачилик саноатига